

---

---

## ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AXLOQIY TARBIYA BERISH MAZMUNI

Ro'ziyeva G.X.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Maktabgacha ta'lim fakulteti 1-bosqich talabasi.

### MAQOLA MALUMOTI

### ANNOTATSIYA:

---

#### MAQOLA TARIXI:

Received:05.02.2025

Revised: 06.02.2025

Accepted:07.02.2025

---

#### KALIT SO'ZLAR:

odob, axloq, shaxs,  
ijtimoiylashuv,  
rivojlanish, muxit,  
tarbiya, ma'naviyat,  
madaniyat, qadriyat.

*Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislatlarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish haqida. Bolalarga axloqiy tarbiya berishda ularning xis-tuyg'ulari, tasavvurlarini va hatti-harakatlarini tarbiyalash ko'rsatib o'tilgan. Axloqiy bilim berish esa bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlarini to'g'risida keng tasavvur, tushunchalar berilgan.*

**KIRISH.** "Axloq" ijtimoiy tushunchalardan biri bo'lib, uning ma'nosi shaxs xatti-xarakatlari, yurish-turishi, xayot tarzi va ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shuning uchun xam axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruxiy xayotida muxim o'rin tutadi. "Axloqiy tarbiya-bu jamiyatning ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Axloqiy tarbiya deganda o'sib kelayotgan yosh avlodga xulq -odob me'yorlariga mos keladigan ilmiy va amaliy harakatlar tizimi tushuniladi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi pq-3970sonli qonuni tasdiqlandi (14.11.2018). Ushbu qonunda maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi uchun shart-shroitlar yaratish to'g'risida fikrlar bayon qilingan. Bugungi kunda yosh avlodni sog'lom, bilimli va odobli qilib

tarbiyalash maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim-uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich poydevori hisoblanadi. Bolaning kelajakda kim bo'lib yetishishi ham shu davrga borib taqaladi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida asosiy tarbiya turi axloqiy tarbiya hisoblanadi. Chunki axloqiy tarbiya orqali biz kelajakda bilimli, odobli va komil insonlarni tarbiyalashimiz mumkin. Axloq so'zi - lotincha «myeros», ya'ni moral, mantiq so'zidan kelib chiqib, u hech qayerda qat'iy yozib qo'yilmagan ijtimoiy qonundir. Inson kundalik hayotida undan (axloq normalaridan) norma sifatida foydalanadi. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi. Axloqiy tarbiyalangan kishida barqaror ma'naviy motivlar shakllangan bo'ladi. Bu motivlar esa o'sha kishini jamiyatda munosib xulq-atvoriga rag'batlantiradi. Yosh avlodni jamiyatga, mehnatga, o'ziga munosabatni ochib beruvchi ma'naviy fazilatlarga muvofiq ravishda tarbiyalash tarbiyalanuvchi shaxsni, axloqiy tarbiyaning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur bilishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Axloqiy bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirib olishgina bolalarga atrofdagi kishilar xatti-harakatidagi qaysi jihatlar yaxshi-yu, qaysilari yomon ekanligini anglab olishga yordam beradi. Axloqiy tushunchalarning turli yosh davrlarida shakllanish darajasi Axloqiy onglilik Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarning bir-biriga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi. Axloq - kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob - shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlarida namoyon bo'ladi. Qadimgi faylasuflar-u, donishmandlar ijodida odob-axloq malasalari markaziy o'rinni egallab kelgan. Ular axloq-odobni jamiyatning «poydevori» deganlar. Shuning uchun jamiyatning har bir a'zosining xulqi-odobiga alohida e'tibor bilan qaraladi. Axloq-kishilarning bir-biriga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namayo bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari majmui hisoblanadi. Bolaning rivojlanishi va tarbiyasida axloqiy tarbiya katta rol o'ynaydi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsini, uning axloqiy va ifodaviy fazilatlarini shakllantirishning samarali vositasidir. Bugungi kunda barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalasi hisoblanadi. O'zbek milliy qadriyatlarini, milliy madaniyatini, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni

takomillashtirish ilk bor oila tomonidan amalga oshiriladi. Kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan ma'suliyatli, ma'naviy yetuk, axloqan pok, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Oilada axloqiy tarbiyaning rolini ko'rsatish, unda ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan axloqiy fazilatlarni egallashning naqadar ahamiyatli ekanligini ilmiy nazariy jihatdan tahlil etish juda muhimdir. Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad Sollolohi Alayhivassalomning hadislarida insoniy axloq-odobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan. Quyidagi hadislarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar», «Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman», «Mo'min kishida quyidagi ikki xislat bo'lmasligi kerak: baxillik va axloqsizlik». Oilada axloqiy tarbiyaning rolini ko'rsatish, unda ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan axloqiy fazilatlarni egallashning naqadar ahamiyatli ekanligini ilmiy nazariy jihatdan tahlil etish juda muhimdir. Oilada bola tarbiyasi masalasi juda qadimdan mutafakkirlarni qiziqtirib kelgan, ular bu masalaga hayotiy faoliyatning muhim bir tomoni sifatida qaraganlar va uni hal etishni o'zlarining vazifasi deb hisoblaganlar. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boyluk bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti deb bilganlar. Axloq-kishilarning bir-biriga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namayo bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari majmui hisoblanadi. Bolaning rivojlanishi va tarbiyasida axloqiy tarbiya katta rol o'ynaydi. Bu maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsini, uning axloqiy va ifodaviy fazilatlarini shakllantirishning samarali vositasidir. Bugungi kunda barkamol inson tarbiyasi, bola tarbiyasida ota-ona mas'uliyatini oshirish, ularni pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish eng dolzarb masalasi hisoblanadi. O'zbek milliy qadriyatlari, milliy madaniyati, bola tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi pedagogik bilimlarni takomillashtirish ilk bor oila tomonidan amalga oshiriladi. Kelajak poydevori bo'lgan, har jihatdan ma'suliyatli, ma'naviy yetuk, axloqan pok, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan yoshlarni tarbiyash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezonu yuksak axloqlilikdir. Beruniyning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim o'rnini ta'kidlashini uning "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Mineralogiya", "Kitob as - Saidona", "al - Qonuni al - Mashudiy", "Giodeziya" va boshqa asarlarida ko'ramiz. Beruniy fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo'lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy muhit - jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi. Beruniy ham axloqiy tarbiyaga musulmon dini



talablaridan kelib chiqqan xolda tahrif beradi. "Axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurashdir". Beruniyning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari va ta'limotlari bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek pedagogika fani yosh avlodni axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, Maktabgacha ta'lim davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichidir. Shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'limtarbiya ta'sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6-7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatlarida egallab olgan axloq normalariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhimdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Bolalarda axloqiy his- tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlarini to'g'risida keng tasavvur, tushunchalar beradi. Bugungi kunda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda axloqiy tarbiyaning o'rnini muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga axloqiy tarbiya berishning asosiy vazifalari mavjud. Ular quyidagilar:

- 1) Bolalarda axloqiy his-tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.
- 2) Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash .
- 3) Bolalarda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
- 4) Xulqidagi salbiy sifatlarni barham toptirish.

Ushbu vazifalar axloqiy tarbiyaning maqsadi va mazmunini ochib beradi.

Bu vazifalar yosh guruhlari bo'yicha aniqlashtiriladilar va o'quv -tarbiya jarayoning mazmunida o'z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat.

1. G'oyaviy va tarbiya ishlarining ma'lum maqsadga qaratilganligi.
2. Talim -tabiia ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish.
3. Axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan birga olib borish.
4. Bolalarning faolligi.
5. Oila va MTTlarning tarbiyaviy ta'sirining birligi.
6. Bola shaxsdagi ijobiy sifatlarga suyanadi.
7. Bola shaxsini har tomonlama rivojlanishini ko'zda tutadi.

Ushbu prinsiplarni Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik shart-sharoit bilan qo'shib amalga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Asosan kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvurlar va bilimlarni faqat o'yinlar orqali o'zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o'zlashtirib olingan axloqiy tasavvurlarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari uchun dastlab mashg'ulotlarda, keyinchalik har xil tarbiyaviy o'yinlar, mehnat jarayonlarida, sayrlarda mustaqil faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Ulardan biri bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqarida qo'shimcha ta'lim berish. Shuningdek har xil qiziqarli tadbirlar, hayotimizdagi ijtimoiy voqealar, ommaviy axborot vositalari -telefon, o'ynaydi jahon va boshqa internet tarmog'lari bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Biz bolalarning tarbiyasi tomonga o'zgarmasligi uchun doimo e'tiborli bo'lishimiz darkor. Bolalarga axloqiy tarbiya berishda biz turli metod va usullardan foydalanamiz. Shuningdek axloqiy tarbiya metodlari bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishiga qaratilgan faoliyat Axloqiy tarbiya metodlarini biz 3 guruhga bo'lishimiz mumkin.

1-guruh. Axloqiy ongni axloqiy tasavvur va bilimlarni ularni bajarish xohishini shakillantirishga qaratilgan metodlar.

2-guruh. Madaniy xulq atvor, ijobiy munosabatlarni shakillantirishga qaratilgan metodlar.

3-guruh. Axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar.

Hamma guruh metodlari axloqiy his -tuyg'ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga qaratilgandir.

Yuqorida keltirilgan metodlar orqali biz bolalarga axloqiy norma va qoidalar, hayotdagi ijtimoiy voqealarni o'rgatamiz. Ularda axloqiy tasavvur va tushunchalarni shakillantiriladi. Bu metodlarga qo'yiladigan asosiy talablar: bolalarning yaxshilik, yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini e'tiborga olish, axloqiy xulq -atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatlarda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his-tuyg'usiga ehtiyotlik bilan munosabatda bolishdan iborat. Ushbu metodlar orqali biz axloqiy tarbiya jarayonini amalga oshiramiz. Shuningdek maktabgacha ta'lim davri bolalarning axloqiy shakillanishidagi eng muhim bosqichidir. Shuning uchun tarbiyachilar maktabgacha yoshdagi bolalarni odobli, axloqli va chiroyli xulq egasi bo'lishlarida tinimsiz xarakat qilishlari lozim.

Buyuk bobokolonimiz aytganlaridek “Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha insonlar uchun yoqimlirog’idir” deganlar.

Xulosa qilib aytganda axloqiy tarbiya orqali bolalarda halollik, adolatlilik, do‘stlik, botirlik, o‘zini tuta bilish, qat’iyatlik kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalashdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalaniladigan axloqiy tarbiya bolaning o‘ziga xos rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan yangi-yangi ,tarbiyaviy ahamiyatiga ega bo‘lgan metodlar va o‘yinlarni ishlab chiqish tarbiyachilarning asosiy vazifalaridan biridir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va amalga oshirish vositalari shaxsning muhim ma’naviy sifatlari bo‘lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O‘zbekiston gerbi, bayrog‘i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg‘ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning muhim vazifasi hisoblanadi .Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini axloqiy hislarini shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O‘yin orqali ta’lim olish metodik qo‘llanma Toshkent -2020
2. Qodirova F.,Toshpo‘latova. Sh.,Kayumova .N, Azamova "Maktabgacha ta’lim pedagogikasi"
- 3.Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika" 2018-yil
- 4.N.Qayumova "Maktabgacha pedagogika" 2013-yil
- 5.P.Yusupova "Maktabgacha pedagogika" Toshkent 2002-yil
- 6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini
- 7.Sh.Shodmonova Maktabgacha ta'lim pedagogikasi" 2008-yil
- 8"Ilk qadam"davlat o'quv dasturi Toshkent 2018-yil